

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV- MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM BERISHNING ASOSI SIFATIDA.

Muximova Sevara Anvarovna

Jizzax shahar maktab va maktabgacha
ta'lif bo'limiga qarashli 18-son DMTT.

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lif yoshidagi bolalarning muhim kompetensiylar ualrning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lif berishda kompetensiyaviy yondashuvning mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'naviy shakllangan avlod, davlat talablari, ta'lif-tarbiya berish, maktab ta'lifiga tayyorlash, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: Важные компетенции детей дошкольного возраста требуют целостного развития ребенка как субъекта деятельности и нравственности. В данной статье описано содержание компетентностного подхода в обучении детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: физически здоровое, психически зрелое, духовно сформированное поколение, государственные требования, образование, подготовка к школьному обучению, компетентностный подход.

Abstract: Important competencies of children of preschool age require the holistic development of the child as a subject of activity and morality. This article describes the content of the competence approach in teaching preschool children.

Key words: physically healthy, mentally mature, spiritually formed generation, state requirements, education, preparation for school education, competence approach.

Maktabgacha yoshidagi bolaning maktab ta'lifiga o'tishi hamisha uning hayoti, ahloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshidagi bolani maktabgacha ta'lif tashkilotida maktab ta'lifiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bu yesa maktabgacha yoshidagi bolalarni moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jihatdan shakllangan avlod etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo'shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati ko'zga tashlanmoqda. Bu kabi talablardan kelib chiqqan xolda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun Davlat talablari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, mакtab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, axloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko'zda tutadi. Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va axloq sub'ekti sifatidagi yaxlit rivojlanishini talab etadi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari quyidagilar sanaladi:

- **Kommunikativ kompetensiya** – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko'nikmasi.

- **O'yin kompetensiyasi** – bolaning o'yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko'nikmalardan ijodiy foydalanishi. O'quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

- **Ijtimoiy kompetensiya** – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me'yorlariga rioya qilgan holda o'zini tuta olish mahorati.

- **Bilish kompetensiyasi** – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko'nikma, malaka va qadriyatlardan o'quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining o'ziga xosligini inobatga olgan xolda shuni

ta'kidlash kerakki, bola rivojlanishning ma'lum bosqichlarini mактабгача yoshdagi davrida bosib o'tadilar, biroq bunda har bir bola noyob va takrorlanmas xususiyatlarga ega bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari bolalarni aynan bir xil, o'xshash narsalar va faoliyat turlari bilan ta'minlashlari uchun ularning o'ziga xos, boshqalardan ajralib turadigan rivojlanish ko'rsatkichlari to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Shu sababli xam tarbiyachilar bir xil yoshdagi turli bolalarning qobiliyatlari va qiziqishlaridagi farqli taraflariarga e'tibor bilan munosabatda bo'lishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G.V.Yeldasheva, G.Q.Karimova. "Tarbiyachining kasbiy maxorati va kompitentligi" moduli. T. 2018y. 155 bet
2. L.R.Mirjalolova Mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasi moduli T.: Iste'dod, 2018. – 257 b
3. M.Usmonova . O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar Ta'lim texnologiyalari. 2016 yil. 4-sон.
4. M.Usmonova .Pedagogik jarayon loyixasi – mashg'ulotlar samaradorligini ta'minlash vositasi sifatida Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va yechimlar. Xalqaro ilmiy konferentsiya. Toshkent. 25 may, 2017 yil
- 5.G.I.Xasanova "Ta'lim jarayonida dasturlashtirilgan o'qitish texnologiyasidan foydalanishning afzalliklari" Jizzax: 2020. 420 bet. 223-225b.
- 6.www.ziyonet.uz.
- 7.www.google.uz.